

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.08.2022.T.73.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

RAXMIDDINOV IZZATILLO OBIDJON O'G'LI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPLUATATSIYA
QILINAYOTGAN MAXSUS O'ZIYURAR HARAKAT TARKIBINI
MODERNIZATSIYA QILISH VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH**

**05.08.05 – Temir yo'llarning harakatlanuvchi tarkibi, poyezdlarni tortish
va elektrlashtirish**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy
(PhD) on technical sciences**

Raxmiddinov Izzatillo Obidjon o‘g‘li

О‘zbekiston Respublikasida ekspluatatsiya qilinayotgan maxsus o‘ziyurar harakat tarkibini modernizatsiya qilish va xizmat muddatini uzaytirish..... 3

Рахмиддинов Иззатилло Обиджон угли

Модернизация и продление срока службы специального самоходного подвижного состава эксплуатируемого в республике Узбекистан..... 21

Raxmiddinov Izzatillo Obidjon ogli

Modernization and service life extension of special self-propelled rolling stock operated in the republic of Uzbekistan..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.08.2022. T.73.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

RAXMIDDINOV IZZATILLO OBIDJON O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPLUATATSIYA
QILINAYOTGAN MAXSUS O‘ZIYURAR HARAKAT TARKIBINI
MODERNIZATSIYA QILISH VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH**

**05.08.05 – Temir yo‘llarning harakatlanuvchi tarkibi, poyezdlarni tortish
va elektrlashtirish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/T5740 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Fayzibayev Sherzod Sabirovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tretyakov Aleksandr Vladimirovich
texnika fanlari doktori, professor

Zafarov Diyor Shuxratjon o'g'li
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent v.b

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.15/31.08.2022.T.73.07 raqamli Ilmiy Kengashning 2025-yil ___ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100167, Toshkent shahri., Temiryo'lhilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tdtu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'lhilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-05-66.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "___" _____da tarqatildi.
(2022 yil "___" _____dagi _____raqamli reestr bayonnomasi).

R.V. Raximov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

Ya.O. Ruzmetov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

R.M. Mirsaatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda temir yo‘l sohasida foydalaniladigan maxsus o‘ziyurar harakat tarkiblarni modernizatsiya qilish, ularning mavjud konstruksiyalarini takomillashtirish va xizmat muddatini uzaytirish masalalariga alohida e‘tibor berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda temir yo‘l harakat tarkibi rama konstruksiyalarini mustahkamlash, ularning chidamliligini va ishonchligini oshirish hamda texnik-iqtisodiy samaradorligini yaxshilash maqsadida ilg‘or mamlakatlarda modellashtirish va konstruksion yechimlarni takomillashtirish yo‘nalishida izchil tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan harakat tarkibining yetishmovchiligi va temir yo‘llarda qurilish-montaj ishlarini kengaytirish zarurati lokomotivlar parkini modernizatsiya qilishni, amaldagi maxsus o‘ziyurar harakat tarkibining samaradorligini oshirishga qaratilgan uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishni hamda texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilash va xizmat muddatini uzaytirishga yo‘naltirilgan yangi tadqiqotlar olib borishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda maxsus o‘ziyurar harakat tarkibining samarali va xavfsiz ekspluatatsiyasini ta‘minlash, shuningdek ularning xizmat muddatini uzaytirish maqsadida yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarning texnik holatini chuqur tahlil qilish, matematik modellashtirish asosida yuklanish jarayonlarini tadqiq etish hamda kuchlanganlik-deformatsiya holatini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, rama konstruksiyalarini mustahkamlash va takomillashtirish, materiallarning charchash va eskirish xususiyatlarini baholash, ekspluatatsiya sharoitlarini hisobga olgan holda me‘yoriy-texnik hujjatlarni ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, xizmat muddati tugagan maxsus o‘ziyurar harakat tarkiblarining qoldiq resursini aniqlash, eng yuqori yuklanish ta‘siriga ega bo‘lgan konstruktiv hududlarini belgilash hamda zamonaviy hisoblash va modellashtirish usullari asosida olingan natijalar ishonchligini asoslash dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda temir yo‘l transport tizimini modernizatsiya qilish, yangi temir yo‘l uchastkalarini qurish, ularni elektrlashtirish hamda amaliyotga joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-329-son qarorida² “... barcha transport turlarini uzviy bog‘lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish ..., ... transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish ..., ... transport tizimida “yashil koridorlar” hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish ...”, hamda “...yo‘lovchi va yuk tashish xarajatlarini kamaytirish..., ... temir yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish, lokomotiv va vagonlar parkini yangilash ...” kabi muhim vazifalar

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-329-sonli qarori

belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarida qo'llaniladigan maxsus o'ziyurar harakat tarkiblarining texnik soz holatini ta'minlash, ularning ishonchliligi va xizmat muddatini uzaytirish bilan bir qatorda, harakat tarkibining asosiy yuk ko'taruvchi elementi hisoblangan rama konstruksiyasida yuzaga keladigan kuchlanganlik-deformatsiya holatini baholash hamda texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilashga qaratilgan kompleks ilmiy-texnik tadqiqotlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 9 avgustdagi "Transport to'g'risida" gi O'RQ-706-sonli va 1999 yil 15 apreldagi "Temir yo'l transporti to'g'risida" gi 766-I-sonli Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli va 2019 yil 1 fevraldagi "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5647-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 maydagi "Transport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4703-sonli va 2023 yil 10 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-329-sonli Qarorlari hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot doirasida o'tkazilgan tahlillar va izlanishlar, maxsus harakat tarkiblarida o'tkazilgan eksperimentlar natijalariga asoslanib, yoqilg'i-energetika resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash va yoqilg'i uchun xarajatlarni kamaytirish - II. "Energetika, energiya va resurslarni tejash" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Temir yo'l maxsus o'ziyurar harakat tarkiblari konstruksiyalarining ishonchliligi, chidamliligi, kuchlanganlik-deformatsiya holati, charchoq mustahkamligi hamda qoldiq resursini aniqlash masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar xalqaro miqyosda keng olib borilgan. Jumladan, A. Wohler, J. Goodman, M.A. Miner, L.F. Coffin, S.S. Manson, S.P. Timoshenko, Y.G. Panovko, N.A. Maxutov, Z. Zhang, Sun Y., Lu Y., V.V. Bolotin, V.T. Troshenko, I.V. Kudryavsev, S.S. Dmitrichenko, A.V. Grigorev, V.L. Gorobets, P.S. Grigorev, M. Kassner va boshqalar.

Respublikamizda harakat tarkibi konstruksiyalarining mustahkamligini oshirish, qoldiq resursini baholash va xizmat muddatini uzaytirishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda N.S. Zayniddinov, Sh.S. Fayzibaev, A.D. Glushinko, Z.G. Muxamedova, G.A. Xromova, I.S. Yutkina, B.T. Fayziyev, R.V. Raximov, Y.O. Ruzmetov, D.O. Radjibayev, N.B. Adilov, A.M. Yusufov va boshqa olimlarning ilmiy ishlari muhim o'rin egallaydi. Shu sababli mazkur yo'nalishda ilmiy-amaliy yechimlarni ishlab chiqish ushbu dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligini belgilaydi.

Shu bilan birga, maxsus o'ziyurar harakat tarkiblari ramalarining kuchlanganlik-deformatsiya holati, charchashga chidamliligi, qoldiq resursini

baholash hamda ekspluatatsiya sharoitlarining konstruktiv elementlarga ta'sirini zamonaviy ilmiy-amaliy tahlil usullari asosida hisobga olish bilan bog'liq muammolari yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan o'zaro bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti "O'zbekiston temir yo'llari" AJ buyurtmasi asosida "Avtomotrisalarning xizmat muddatini uzaytirish texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi № AL-662204208 raqamli grant hamda "Temir yo'l maxsus harakatlanuvchi tarkiblarning yuk ko'taruvchi rama konstruksiyalarining joriy texnik holatini baholash va konstruksiyasining mustahkamligini oshirishga qaratilgan normativ-texnik konstruktorlik hujjatlarini ishlab chiqish" mavzusidagi K1080374-sonli xo'jalik shartnomasi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston temir yo'llarida foydalanilayotgan ADM-1 avtomotrisalarning joriy texnik holatini baholash, qoldiq resursini aniqlash va ularning ishonchliligini oshirish maqsadida modernizatsiya qilish orqali xavfsiz foydalanish muddatini uzaytirish imkoniyatini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O'zbekiston temir yo'llarida foydalanilayotgan maxsus o'ziyurar harakat tarkiblarining park holatini tahlil qilish;

avtomotrisa rama konstruksiyani ultratovush defektoskopiya va boshqa diagnostik usullar orqali texnik holatini baholash va nosozliklarni paydo bo'lish sabablarini o'rganish;

rama konstruksiyasida ko'p uchraydigan yoriqlarni aniqlash va ularning paydo bo'lish sabablarini ramaning yuqori mexanik kuchlanishlar hududlari bilan ilmiy asosda bog'lash, shuningdek, ushbu nosozliklarning shakllanishini tahlil qilish;

rama konstruksiyaning kuchlanganlik-deformatsiya holatini amaliy (tenzometriya) va nazariy (chekli elementlar) usullarini qo'llagan holda aniqlash;

kuchlanganlik-deformatsiya holatini amaliy va nazariy usullardan olingan ma'lumotlardan foydalanib me'yoriy hujjatlar bo'yicha hisoblash rejimlari va ekspluatatsiya tezligini inobatga olgan holda ruxsat etilgan qiymatlarini aniqlash;

xizmat muddatini uzaytirishda rama konstruksiyasining chidamliligini oshirish uchun texnik Yo'riqnoma, rama konstruksiyalarini payvandlash bo'yicha Yo'riqnoma, hamda avtomotrisalarning xizmat muddatini uzaytirish bo'yicha normativ-texnik hujjatlar ishlab chiqish.

Tadqiqot obykti sifatida maxsus o'ziyurar harakat tarkibidagi ADM-1 avtomotrisaning yuk ko'taruvchi ramasi olingan.

Tadqiqot predmetini ADM-1 avtomotrisa ramasining joriy texnik holati, kuchlanganlik-deformatsiya holati hamda ekspluatatsiya jarayonida hosil bo'ladigan statik va dinamik yuklamalar ta'sirida uning mustahkamlik va ishonchlilik ko'rsatkichlari tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida tahliliy, statistik, ultratovush defektoskopiya hamda eksperimental tadqiqot usullaridan kompleks ravishda foydalanilib, konstruksiyalarning kuchlanganlik - deformatsiya holatini o'rganish maqsadida zamonaviy muhandislik dasturiy ta'minoti asosida chekli elementlar usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ADM-1 avtomotrisa ramasining kuchlanganlik-deformatsiya holati, dinamik kuchlar ta'sirida rama elementlarining yuklanganligi va resursini baholash imkonini beruvchi chekli elementli modeli ishlab chiqilgan;

ADM-1 avtomotrisa ramasining mustahkamligini baholash uchun harakat davomidagi dinamik kuchlar ta'sirini inobatga oluvchi yurish sinovini o'tkazish dasturi ishlab chiqilgan;

ADM-1 avtomotrisa ramasining kuchlanganlik-deformatsiya holati va turli ekspluatatsion rejimlarda ta'sir etuvchi omillarni inobatga olgan holda qoldiq resursini baholash algoritmi ishlab chiqilgan;

ADM-1 avtomotrisa ramasidagi yuklanganligini baholashda ularning joriy texnik holati va ekspluatatsiya jarayonida ta'sir etuvchi omillarni inobatga olgan holda qoldiq resursini aniqlash uslubiyoti ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

temir yo'l maxsus o'ziyurar harakat tarkibi ramalarini ta'mirlash jarayonida bajariladigan payvandlash ishlarini amalga oshirish tartibi va texnologik talablar asoslangan;

ADM-1 avtomotrisasi ramasi konstruksiyasining joriy texnik holatini baholash usullari ishlab chiqilib, uning mustahkamligini oshirishga qaratilgan konstruktiv-texnologik yechimlar taklif etilgan;

rama konstruksiyasini kuchaytirish orqali ekspluatatsion ishonchlilikni oshirish va xizmat muddatini uzaytirish bo'yicha ilmiy-texnik yechimlarni qo'llash imkoniyatlari asoslangan;

ADM-1 avtomotrisasi ramasi uchun qoldiq resursni aniqlashda defektoskopiya, eksperimental o'lchovlar va hisobiy usullarga asoslangan uslubiy yo'riqnoma ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yakunida olingan umumiy nazariy xulosalar ilmiy-tadqiqot ishida tenzometriya usullari va zamonaviy muhandislik dasturiy ta'minotlaridan, tajriba va sinovlar jarayonida esa sertifikatlangan hamda akkreditatsiya qilingan defektoskopiya vositalaridan foydalanilishi, shuningdek hisobiy va tajribaviy natijalarning o'zaro muvofiqligi hamda nazariy natijalarning amaliy ma'lumotlarga yaqinligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ADM-1 avtomotrisadan uzoq muddat foydalanish jarayonida rama konstruksiyasining texnik holati o'zgarishlarini aniqlash maqsadida defektoskopiya, ultratovush tolshinometriyasi va chekli elementlar usulida hisobiy model ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati avtomotrisa rama konstruksiyasining mustahkamlik zaxirasi va qoldiq resursini baholashda kuchlanganlik-deformatsiya holatining harakat tezligiga bog'liqligi ilmiy asosda aniqlanib, ekspluatatsiya sharoitlarida texnik holatni baholash va xizmat muddatini uzaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston temir yo'llarida foydalanilayotgan ADM-1 turidagi maxsus o'ziyurar harakat tarkiblarining xizmat muddatini uzaytirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

ADM-1 avtomotrisa rama konstruksiyaning chekli elementli hisobiy modellari asosida ishlab chiqilgan mustahkamlikka hisoblash uslubiyati Toshkent elektr ta'minoti masofasida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2025-yil 21-apreldagi 4/E669-sonli ma'lumotnomasi). Natijada rama konstruksiyaning yuqori yuklangan joylari real ekspluatatsion holatlarda aniqlangan;

ADM-1 avtomotrisa rama konstruksiyasining xizmat muddatini uzaytirish va qoldiq resursini aniqlash uslubiyoti Buxoro temir yo'l mashinalarini ta'mirlash ustaxonasida (PDM–Buxoro) joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2025-yil 21-apreldagi 4/E669-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ADM-1 avtomotrisaning yuk ko'taruvchi rama konstruksiyasining mustahkamligi va ekspluatatsion ishonchliligi oshirilib, uning xizmat muddati yana 27 yilgacha uzaytirish imkoniyati ilmiy asoslangan;

609-raqamli ADM-1 avtomotrisasi rama konstruksiyasini takomillashtirish bo'yicha ta'mirlash-konstruktorlik ishlari amalga oshirildi hamda "O'zbekiston temir yo'llari" AJ Buxoro mintaqaviy temir yo'l uzeli tarkibidagi Samarqand elektr ta'minoti distansiyasiga qarashli "Ziyovuddin tortish nimstansiyasi"da amaliyotga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2025-yil 21-apreldagi 4/E669-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik taxminan 215 000 000 (ikki yuz o'n besh million) so'mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy anjumanlarda, shu jumladan 2 ta Scopus xalqaro ma'lumotlar bazasida indekslangan ilmiy anjumanda, 2 ta xalqaro va 4 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda bayon etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 18 ta ilmiy ish, shu jumladan 1 ta xalqaro va 4 ta O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan nashrlarda e'lon qilingan va 5 ta EHM uchun yaratilgan dasturning rasmiy ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 117 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish bo'limida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati, uning maqsad va vazifalariga asoslanib, tadqiqot obyekti hamda predmeti bayon qilingan. Shuningdek, ularning Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi asoslab berilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati keng yoritilgan. Bundan tashqari, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ilmiy ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Maxsus o'ziyurar harakat tarkibi konstruksiyasini tahlili va tadqiqot vazifalarini belgilash hamda adabiyotlar tahlili**" nomli birinchi bobda ADM-1 avtomotrisasining konstruktiv tuzilmasi va uning asosiy

texnologik ko'rsatkichlari tahlil qilindi. O'zbekiston temir yo'llarida harakatlanayotgan maxsus o'ziyurar harakat tarkibi (MO'HT) parkining hozirgi holati statistik va texnik ko'rsatkichlar asosida baholandi. Tahlillar asosida bu maxsus harakat tarkiblarining 65 foizidan ko'proq qismi o'z xizmat muddatini o'tab bo'lganligi aniqlandi. Shuningdek, avtomotrisaning xizmat muddatini uzaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlar ishlab chiqildi.

Tadqiqot vazifalari sifatida konstruksiyaning ekspluatatsion yuklamalarga chidamliligi, qoldiq resursni aniqlash metodikasi, modernizatsiya ahamiyati va ularni amaliyotga joriy etish imkoniyatlari belgilab olingan. Rama konstruksiyasining qoldiq resursi va mustahkamligini baholash masalalari bo'yicha ilgari o'tkazilgan ilmiy ishlarga tahlil berilgan. Bu esa tadqiqotning ilmiy asosini mustahkamladi hamda mavjud ilmiy kamchiliklarni aniqlashga xizmat qildi. Bob yakunida olib borilgan konstruktiv va park holati tahlillar asosida umumlashtirilgan xulosalar keltirib o'tilgan bo'lib, ular keyingi bo'limlarda bayon etiladigan nazariy asoslar va eksperimental tadqiqotlar uchun mustahkam ilmiy poydevor bo'lib xizmat qildi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, respublika bo'yicha MO'HT parki eskirish darajasi yuqori bo'lib, 20 yildan ortiq ekspluatatsiya qilingan avtomotrisalar umumiy tarkibning 64 foizini tashkil etadi. Hududlar kesimida ADM-1 turdagi maxsus o'ziyurar tarkiblarning ulushi 23 foizni tashkil etib, ularning bir qismi kapital ta'mirlash va modernizatsiya choralari talab qiladi (1-rasm). Ushbu holat mavjud parkning texnik ishonchligini oshirish va xizmat muddatini uzaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqishni zaruratga aylantiradi.



1-rasm. MO'HT korxonalar kesimida taqsimoti va park holati

Dissertatsiyaning "ADM-1 avtomotriza rama konstruksiyalarining takroriy yuklamalar ta'sirida yuzaga keluvchi shikastlanish jarayonlarini o'rganish va joriy texnik holatini eksperimental baholash" nomli ikkinchi bobida ADM-1 avtomotriza ramasi ekspluatatsiya jarayonida takrorlanadigan dinamik yuklamalar ta'sirida yuzaga keladigan asosiy nosozlik turlari tahlil qilindi. Konstruksiyada eng ko'p uchraydigan yoriqlar, metall toliqishi, korroziya natijasida yemirilishi va payvand choklaridagi nuqsonlar tahlil qilindi. Shuningdek, rama konstruksiyasida vizual ko'zdan kechirish, kapilyar usulda nuqsonlarni aniqlash va ultratovush defektoskopiyasi yordamida o'tkazilgan diagnostika tekshiruvlari tahlil qilinib, ularning rama nosozliklari tahlil qilindi hamda eng ko'p shikastlanishga moyil konstruktiv zonalar aniq belgilandi (2-rasm).



2-rasm. Rama konstruksiyaga qo‘llanilgan diagnostika usullari:
a – vizual diagnostika; *b* – defektoskopik diagnostika; *c* – kapillyar diagnostika


Ilmiy-tadqiqot ishi davomida rama korroziya va metallning tabiiy toliqishi natijasida yuzaga keladigan korroziya darajasini baholash uchun UT-1M rusumli ultratovush qalinlik o‘lchagichidan foydalanildi. Rama tuzilmasining muhim uzellarida o‘lchangan nuqtalari belgilandi va har bir nuqtada metall qalinligi aniqlanib, yemirilish darajasi hisoblandi (3-rasm). O‘tkazilgan qalinlik o‘lchovlari natijalari listlarning qalinligi me‘yoriy konstruktorlik hujjatlariga to‘liq mos kelishini ko‘rsatdi. Elementlar ishlab chiqaruvchi zavod chizmalarida belgilangan qalinlikka ega bo‘lib, sezilarli korroziya holatlari aniqlanmadi.

Rama bo‘yicha o‘tkazilgan qalinlik o‘lchovlari natijalari mos ravishda 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval
№609 ADM avtomotriska rama konstruksiyasining qalinligini o‘lchash natijalari, mm


Ustidan ko‘rinishi, mm													
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
10,03	10,13	10,08	9,89	9,95	9,88	10,02	10,05	10,15	10,12	10,21	9,97	10,13	9,92
A-A							B-B						
1	2	3	4	5	6	7	1	2	3	4	5	6	7
6,04	6,65	6,02	6,04	6,28	6,34	6,35	6,42	6,44	6,58	6,34	6,45	6,52	6,64
O‘ng tomondan ko‘rinishi, mm													
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
6,14	6,58	6,13	6,24	6,31	6,34	6,05	6,24	18,03	18,15	18,22	18,02	18,15	18,04
Chap tomondan ko‘rinishi, mm													
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
6,14	6,56	6,12	6,18	6,18	6,14	6,25	6,22	18,03	18,15	18,22	18,02	18,15	18,04
Oldidan ko‘rinishi, mm							Ortidan ko‘rinishi, mm						
1	2	3	4	1	2	3	4						
10,02	10,12	10,08	10,21	10,11	10,09	10,17	10,22						

Dissertatsiyaning “ADM-1 avtomotriskaning rama konstruksiyasining kuchlanganlik-deformatsiya holatini nazariy va eksperimental hisoblash” nomli uchinchi bobida ADM-1 avtomotriska ramasi uchun kuchlanganlik-deformatsiya holatini aniqlashning nazariy va amaliy asoslari o‘rganildi.



3-rasm. Avtomotrisa ramasing qalinlik o'lchash sxemasi

Konstruksiyaga ta'sir etuvchi statik yuklamalar, yuklanish sxemalari aniqlanib, asosiy balkalardagi kuchlanishlar taqsimoti hisoblab chiqildi. Statik tahlil natijasida kuchlanish konsentratsiyasi yuqori bo'lgan zonalar belgilandi.



4-rasm. Rama konstruksiyasining chekli elementli tahlili:

a – avtomotrisa ramasing chekli elementli modeli; *b* – ADM-1 avtomotrisa ramasing yuklanganlik sxemasi; *c* – ramaning kuchlanganlik-deformatsiya holati; *d* – avtomotrisa ramasing kuchlanishlar konsentratsiyasi maksimal qiymati; *e* – ramani mustahkamlashdan oldingi kuchlanganlik-deformatsiya holati; *f* – ramani kuchaytirishgacha bo'lgan mustahkamlik zaxira epyurasi


Rama konstruksiyasining mustahkamlik holati CHEU yordamida baholandi. Haqiqiy o'lcham, yuklanish sharoitlari va material xossalari inobatga olingan holda raqamli model yaratildi va kuchlanishlar, deformatsiyalar hamda ekvivalent von-Mises kuchlanishlari aniqlangan. Hisoblash natijalari orqali kritik zonalar, ortiqcha kuchlanish to'planadigan elementlar va deformatsiya ko'rsatkichlari qayd etildi.

Tuzilgan chekli elementlar modeli asosida avtomotrisaning rama konstruksiyasi bo'yicha kuchlanish-deformatsiya tahlillari amalga oshirildi (4-rasm). Von Mises mezoni bo'yicha hisoblangan kuchlanishlar ramaning yuklanganlik sxemasi (4b-rasm) va kuchlanganlik-deformatsiya holatini (4c-rasm) baholashga imkon berdi. Kuchlanishlarning maksimal konsentratsiyaga ega bo'lgan zonalarini 4d-rasmda aniq ko'rsatilgan bo'lib, ular konstruksiyada zaif hududlar mavjudligini ko'rsatdi. Mustahkamlashdan oldingi ramaning kuchlanish-deformatsiya holati 4e-rasmda, ramani kuchaytirishgacha bo'lgan mustahkamlik zaxirasi epyurasi esa 4f-rasmda aks ettirilgan. Olingan natijalar asosida avtomotrisa ramasi ishonchligini oshirishga qaratilgan konstruktiv takliflar ishlab chiqildi.

Ushbu bobda kuchlanish va deformatsiyalarni real sharoitda aniqlash uchun eksperimental o'lchovlar amalga oshirildi. Tenzometrik o'lchovlar o'tkazish uchun optimal datchik joylashuvlari tanlab olindi, tanlash mezonlari sifatida CHEU natijalari, statik tahlil xulosalari va shikastlanish ko'p uchraydigan zonalar hisobga olindi. Tenzodatchiklarni o'rnatish, kalibrlash va signalni qayd etish tartibi bo'yicha algoritmlar ishlab chiqildi. Eksperiment uchun haqiqiy yuklanish rejimlarini aks ettiruvchi sinov sharoitlari yaratildi. Tenzometrik o'lchovlardan olingan ma'lumotlar qayta ishlanib, kuchlanish va deformatsiya grafiqi, amplituda o'zgarishlari, vaqt bo'yicha yuklanish tebranishlari tahlil qilindi. Eksperimental natijalar CHEU orqali olingan nazariy hisoblar bilan solishtirilib, maksimal og'ish miqdori, aniqlik darajasi va moslik koeffitsiyentlari hisoblandi. Tahlil natijasida model natijalarining real konstruksiyaga mos kelishi tasdiqlandi, ayrim zonalarda ortiqcha kuchlanishlarga sabab bo'ladigan konstruktiv omillar aniqlandi.


Avtomotrisaning asosiy yuk ko'taruvchi elementi rama konstruksiyasida kuchlanish-deformatsiya holatini aniqlash uchun tenzometriya usuli asosida eksperimental tadqiqotlar olib borildi. Bu yerda tenzodatchiklarni optimal joylashtirish bo'yicha algoritmlar va blok sxemasi ishlab chiqildi. Dastlab rama yuzasida kuchlanish ehtimoli yuqori bo'lgan va Solidworks orqali aniqlangan yuqori yuklanishli zonalar aniqlanib, ularga tenzodatchiklarni o'rnatish uchun mos joylar tanlandi (5-rasm). So'ngra tenzodatchiklar tayyorlanib, ularning elektr ulanishlari o'rnatildi va ishlash holati sinovdan o'tkazildi.

ADM-1 avtomotrisasi rama konstruksiyasida turli tezliklardagi harakat rejimlarida (10, 30, 55 va 60 km/soat) yuzaga keladigan maksimal kuchlanishlar tenzometriya usuli asosida natijalar olindi. Grafikda 16 ta kanal bo'yicha 64 ta tenzodatchiklardan olingan kuchlanish natijalari berilgan bo'lib, ular ish, tortish va transport rejimlari uchun me'yoriy kuchlanish chegaralari bilan solishtirildi.



5-rasm. ADM-1 avtomotrisa ramasiga tenzodatchiklarni o‘rnatilish sxemasi

ADM-1 rusumli maxsus harakat tarkibi ramasi bo‘yicha o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijasida konstruksiyaning 16 ta nuqtasiga o‘rnatilgan tenzodatchiklar orqali turli tezliklarda hosil bo‘ladigan kuchlanishlar aniqlangan. O‘lchovlar barcha kanallarda tezlik oshishi bilan kuchlanishning chiziqli tarzda ortib borishini ko‘rsatib, ramaning dinamik yuklarga sezgirligini tasdiqladi (6-rasm).



6-rasm. Kuchlanishning tezlikka bog‘liqlik grafiqi

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, ramaning 15–16-kanallarida qayd etilgan maksimal kuchlanishlar mavjud rejimlar uchun belgilangan me‘yoriy ruxsat etilgan qiymatlardan 15-16 kanallarda oshib ketadi. Ayniqsa, tezlik oshishi bilan kuchlanish darajasining keskin ortishi konstruksiyaning ushbu zonalarida yuk ko‘tarish bo‘yicha asosiy elementlar joylashganini va kuchlanish konsentratsiyasi yuzaga kelish ehtimoli yuqori ekanini tasdiqlaydi. Ushbu holat ramaning ekspluatatsion ishonchliligi va charchoq mustahkamligi uchun xavf tug‘dirishi sababli konstruksiyada kuchlanishni kamaytirishga qaratilgan mustahkamlash orqali kuchlanishlar konsentratsiyasini kamaytirish ishlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Past yuklanadigan zonalarda (1–9-kanallar) maksimal kuchlanish 10–60 MPa oralig‘ida shakllanib, konstruksiyaning ushbu qismlari ish rejimida barqaror ishlashi

aniqlandi. Eng katta kuchlanishlar 10–16-kanallarda qayd etilib, tezlikning ortishi bilan 90 MPa dan 161 MPa gacha yetdi. Bu esa ramaning mazkur uchastkalari yuk ko‘tarish bo‘yicha eng asosiy elementlar ekanini va ularda kuchlanish konsentratsiyasi shakllanishi ehtimoli yuqoriligini ko‘rsatdi.

2-jadval

Hisoblash rejimlari uchun ruxsat etilgan kuchlanish qiymatlari

Hisoblash rejimlar	Hisoblash rejimlar bo‘yicha ruxsat etilgan qiymatlar
Transport rejimi	211,5
Ish rejimida	152,75
Tortish rejimida	152,75
Konstruksion tezlikda harakat qilish	152,75


Ekspirimental natijalar grafiklarda kuzatilgan umumiy qiymatlar bilan mos keladi: tezlik oshgani sari barcha kanallarda kuchlanish o‘sishi muntazam bo‘lib, ayrim nuqtalarda keskin o‘shish kuzatiladi. Ushbu natijalar chekli elementlar usuli orqali olingan hisobiy ma’lumotlarni tasdiqlaydi hamda ramada charchash xavfi yuqori bo‘lgan kritik zonalarini aniqlash, mustahkamlash bo‘yicha konstruktiv takliflarni ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos yaratdi.

Dissertatsiyaning **“Rama konstruksiyani funksional imkoniyatlarini yaxshilash va mustahkamlash ishlari orqali xavfsizlikni oshirish. Rama konstruksiyalarining qoldiq resursini baholash”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida ADM-1 avtomotrisasi rama konstruksiyasining statik va dinamik yuklamalar ostidagi holatini baholash, kuchlanish-deformatsiya taqsimoti, charchoqqa chidamlilik va payvandlash ishlari samaradorligini aniqlashga qaratilgan kompleks tadqiqotlar yoritilgan.

ADM-1 avtomotrisasi ramasi konstruksiyasining xizmat muddatini uzaytirish, xavfsizlik darajasini oshirish va qoldiq resursini aniqlashga doir kompleks texnik, eksperimental va hisoblash ishlari amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda rama konstruksiyasini modernizatsiya qilish bo‘yicha texnik asoslar ishlab chiqildi hamda konstruktiv takliflar asosida mustahkamlovchi listlar payvandlandi. Modernizatsiyaning samaradorligi charchoqqa chidamlilik va kuchlanishlarning qayta taqsimlanishi orqali baholandi.

Shuningdek, modernizatsiyadan so‘ng mustahkamlikni baholash uchun chekli-elementlar usulida qayta hisoblash ishlari amalga oshirildi va sinov natijalari bilan solishtirildi (7-a,b rasmlar). Xavfsizlikni oshirishga doir tavsiyalar ishlab chiqilib, nosozlik xavfi yuqori bo‘lgan zonalar uchun payvandlash orqali mustahkamlash ishlari amalga oshirildi.



7-rasm. Rama konstruksiyaning mustahkamlash ishlaridan keyingi chekli elementli modeli tahlili:

- a* – avtomotrisa ramasining chekli elementli modeli; *b* – kuchaytirilgan listlar orqali chekli elementli modeli; *c* – modernizatsiyadan keyingi mustahkamlik zaxirasi epyurasi;
- d* – modernizatsiyadan keyingi maksimal kuchlanganlik-deformatsiya qiymati

Modernizatsiyadan so‘ng ADM-1 avtomotrisasi ramasi bo‘yicha o‘tkazilgan kuchlanganlik-deformatsiya tahlili maksimal kuchlanishning 10,1 foizga kamayganini ko‘rsatib, konstruksiyaning umumiy ishonchliligi oshganini tasdiqladi (3-jadval). Xavfsizlik koeffitsientining 1,57 dan 1,76 ga ko‘tarilishi ramadagi mustahkamlash choralari samarali bo‘lganini va ekspluatatsion chidamlilikning sezilarli ravishda yaxshilanganini ko‘rsatdi.

3-jadval

ramani mustahkamlashdan keyingi va oldingi parametrlari

Ko‘rsatkich	Mustahkamlashdan oldin	Mustahkamlashdan keyin	O‘zgarish
Maksimal kuchlanish (MPa)	159,4	143,3	10,1 foizga kamaygan
Materialning oquvchanlik chegarasi (MPa)	235	235	O‘zgarmagan
Xavfsizlik koeffitsienti (FOS)	1,57	1,76	12,1 foizga mustahkamlangan

O‘zbekiston temir yo‘llarida ekspluatatsiya qilinayotgan ADM-1 turidagi avtomotrisalarning kundalik, oylik va yillik bosib o‘tgan yo‘llari bo‘yicha statistik tahlil olib borildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, avtomotrisalardan muntazam foydalanish

jarayonida ularning asosiy yuk ko'taruvchi elementi bo'lgan rama konstruksiyalariga doimiy kuchlanishlar ta'sir qiladi.

Bu kuchlanishlarga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri relslarni ulanish bo'g'inlaridan o'tish jarayonida yuzaga keladigan katta qiymatli dinamik kuchlardir. Mazkur jarayon avtomotrisaning har bir yurish siklida rama konstruksiyasi uchun takrorlanuvchi zarba yuklamalarini keltirib chiqaradi, bu esa uzoq muddatli ekspluatatsiyada charchoq holatiga olib kelishi mumkin.

Rama konstruksiyasiga ushbu yuklamalarning umumiy ta'sirini baholashda asosiy ko'rsatkichlardan biri rels bo'g'inlaridan o'tish sikllari soni hisoblanadi. U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$N = \frac{L_{yil}}{L_{rels}}, \quad (1)$$

bu yerda L_{yil} - avtomotrisani bir yilda bosib o'tgan masofa; L_{rels} - relsning uzunligi.

Qoldiq xizmat muddati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$T = \frac{N}{N_{yil}}, \quad (2)$$

bu yerda N_{yil} – avtomotrisani bir yil davomida relslarning ulanish bo'g'inlaridan o'tishidagi sikllar soni; N – rama konstruksiyalarning bardosh beradigan sikllar soni.

Yuqoridagi formulalarga tayangan holda avtomotrisaning xizmat muddati kunlik bosib o'tiladigan masofaga funksional bog'liqlik sifatida hisoblandi. Hisob-kitob natijalari 4-jadvalda jamlangan bo'lib, ular kunlik yurish hajmi ortishi bilan charchoq sikllari soni ko'payishi va, mos ravishda, xizmat muddati qisqarishini ko'rsatdi.

4-jadval

Avtomotrisalardan foydalanish jadalligining qoldiq resursiga bog'liqligi

№	ADM-1 avtomotrisalari yillik va kunlik masofa	Foydalanish muddati, yil
1	Maksimal yillik bosib o'tgan masofasi 20 002 km va kunlik 34,2 km	27
2	O'rtacha bosib o'tgan yillik masofasi 17 500 km va o'rtacha kunlik 31,1 km	29
3	Eng kam bosib o'tgan masofasi 13 870 km va eng kam kunlik 28 km	32

Hisob-kitoblar natijalariga ko'ra, avtomotrisa foydalanish davomida xavfsiz ishlashi va xizmat muddatini 27 yilgacha uzaytirish imkoniyati mavjud ekanligi aniqlandi.

Buzilishgacha bo‘lgan sikllarning umumiy soni quyidagi 3 - formula asosida hisoblanadi:

$$N_{sum} = N_G \frac{\sigma_{-1d}^m}{\sum_{\sigma_{ai} \geq \sigma_{-1d}} t_i \sigma_{ai}^m}, \quad (3)$$

bu yerda N_G - charchash egri chizig‘ining sinish nuqtasiga mos keladigan sikllar soni; m - charchash egri chizig‘ining qiya tarmog‘i darajasi ko‘rsatkichi; σ_{-1d} - detalning chidamlilik chegarasi; σ_{ai} - yuklanish siklining amplitudasi; t_i - σ_{ai} amplitudali sikllar sonining umumiy sikllar soniga nisbati.

XULOSA

Dissertatsiya ishida O‘zbekiston temir yo‘llarida ekspluatatsiya qilinayotgan ADM-1 rusumidagi maxsus o‘ziyurar harakat tarkibining asosiy yuk ko‘taruvchi elementi bo‘lgan rama konstruksiyasining qoldiq xizmat resursini aniqlash va uning xizmat muddatini uzaytirishga qaratilgan kompleks nazariy va eksperimental tadqiqotlar amalga oshirildi, shu bilan birga:

1. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, hozirgi kunda foydalanilayotgan maxsus o‘ziyurar harakat tarkiblarining 64 foizidan ortiq qismi uzoq yillik ekspluatatsiya natijasida texnologik jihatdan eskirgan. Ularning rama konstruksiyalarida mexanik yuklamalar ta’sirida yuzaga keladigan yoriqlar, deformatsiyalar va korroziya kabi omillar xizmat muddatining tugashiga yaqinlashganini anglatadi. Shu bois, ularning texnik holatini baholash, modernizatsiya qilish va xizmat muddatini uzaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar zarur ekani aniqlangan.

2. Ultratovush defektoskopiyasi, vizual, kapillyar va boshqa texnik diagnostika usullari yordamida rama konstruksiyasining bir necha joylarida ichki va sirtgi yoriqlar va boshqa nosozliklar aniqlandi. O‘tkazilgan tahlillarda nosozliklarning asosiy sabablari sifatida me’yordan ortiq dinamik yuklamalar, rels bo‘g‘inlaridan o‘tishdagi silkinishlar, kuchlanish konsentratsiyasi mavjud bo‘lgan zonalar aniqlandi.

3. Ilmiy-tadqiqot davomida ramada korroziya va metallning tabiiy toliqishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yemirilish darajasini baholash uchun UT-1M rusumli ultratovush qalinlik o‘lchagichidan foydalanildi; rama tuzilmasining muhim qismlarida 64 ta diagnostika nuqtalari belgilandi, har bir nuqtada metall devor qalinligi o‘lchanib, uning me’yoriy qiymatlar bilan taqqoslandi va ushbu

ma'lumotlar asosida konstruksiyaning chekli elementlar modeli SOLIDWORKS dasturida ishlab chiqildi. O'lchov natijalari listlar qalinligining konstruktorlik hujjatlarida belgilangan loyihaviy qiymatlarga to'liq mos kelishini, elementlarda sezilarli korroziya holatlari va metall yeyilishining xavfli darajalari mavjud emasligini ko'rsatib, rama konstruksiyasining texnik holati keyingi kuchlanish-deformatsiya tahlillari uchun ishonchli boshlang'ich ma'lumotlar bilan ta'minlanganini tasdiqladi.

4. Chekli elementlar usuli asosida o'tkazilgan kuchlanish-deformatsiya tahlillari rama konstruksiyasida eng yuqori kuchlanishga ega bo'lgan zonalarini aniqlashga imkon berdi. Bu zonalar tajribada eng ko'p yoriq va nosozlik kuzatilgan joylar bilan mos tushdi. Bu esa, yoriqlar va konstruktiv zaifliklarning bir-biri bilan bevosita bog'liqligini isbotlab berdi.

5. Tenzometriya usuli orqali olingan eksperimental natijalar va nazariy (ChEU) tahlillar o'zaro taqqoslanib, 95% aniqlikka ega bo'lgan o'xshashliklar qayd etildi. Bu ikki usulni integratsiyalash orqali rama konstruksiyasining real ishlash sharoitidagi kuchlanish holatini yuqori darajada aniqlik bilan baholash imkoniyati yaratildi.

6. Rama konstruksiyasidagi mustahkamlash ishlari natijasida maksimal kuchlanish 159,4 MPadan 143,3 MPaga kamayib, umumiy yuklanish darajasi 10,1 foizga pasaydi; materialning oquvchanlik chegarasi o'zgarmagan holda qolgan bo'lsa-da, xavfsizlik koeffitsienti 1,57 dan 1,76 ga ko'tarilib, konstruksiyaning mustahkamligi va ishga yaroqlilik zaxirasi 12,1 foizga oshgani aniqlandi.

7. Nazariy va amaliy usullar asosida olingan ma'lumotlar yordamida mavjud yuklanish rejimlari va harakat tezliklari uchun ruxsat etilgan kuchlanishlar aniqlandi. Bu natijalar asosida rama konstruksiyasining ekspluatatsion ishonchligi baholandi va uning xavfsiz ishlash chegaralari aniq belgilandi.

8. Olingan eksperimental o'lchovlar va hisobiy natijalar asosida maxsus formulalar hamda baholash algoritmlaridan foydalanib, rama konstruksiyasining xizmat muddatidan qoldiq resursi aniqlab chiqildi. Qoldiq resurs qiymati konstruksiyaning haqiqiy ekspluatatsion yuklamalari, mavjud yoriqlar holati va amalga oshirilgan mustahkamlash darajasini kompleks hisobga olgan holda baholandi.

9. Tadqiqot natijalariga asoslanib, ramaning zaif zonalarini kuchaytirish uchun payvandlash texnik yo'riqnomalar, xizmat muddatini uzaytirish va qoldiq resursini aniqlash yo'riqnomasi ishlab chiqildi. Ushbu yechimlar rama

konstruksiyasining ishlash ishonchliligini oshirib, xizmat muddatini uzaytirishda qoʻllanildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ НАУЧНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.15/31.08.2022.Т.73.07 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТРАНСПОРТНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

РАХМИДДИНОВ ИЗЗАТИЛЛО ОБИДЖОН УГЛИ

**МОДЕРНИЗАЦИЯ И ПРОДЛЕНИЕ СРОКА СЛУЖБЫ
СПЕЦИАЛЬНОГО САМОХОДНОГО ПОДВИЖНОГО СОСТАВА
ЭКСПЛУАТИРУЕМОГО В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН**

05.08.05 – Подвижной состав железных дорог, тяга поездов и электрификация

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии по техническим наукам (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2025.2.PhD/T5740.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном транспортном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Научного Совета (www.tstu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Файзибаев Шерзод Сабинович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Третьяков Александр Владимирович
доктор технических наук, профессор

Зафаров Диёр Шухратжон угли
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация:

Ферганский государственный технический университет

Защита диссертации состоится ____ 2025 г. в ____ часов на заседании Научного совета DSc.15/31.08.2022.T.73.07 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном транспортном университете. (Адрес: 100167, Ташкент, Темирйулчилар, 1. Тел.: (99871) 299-00-01; факс: (99871) 293-57-54, e-mail: rektorat@tdtu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного транспортного университета (зарегистрационный номер – 231). (Адрес: 100167, г. Ташкент, ул. Темирйулчилар, 1. Тел.: (99871) 299-05-66)

Автореферат диссертации разослан ____ 2025 года.
(протокол реестра № ____ от ____ 2025 года).

Р.В. Рахимов

Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.т.н., профессор

Я.О. Рузметов

Ученый секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.т.н., профессор

Р.М. Мирсаатов

Председатель Научного семинара
при Научном совете по присуждению
учёных степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире особое внимание уделяется вопросам модернизации специального самоходного подвижного состава, используемого в железнодорожной отрасли, совершенствования его существующих конструкций и продления срока службы. В настоящее время в развитых странах проводятся последовательные исследования в направлении совершенствования моделирования и конструктивных решений с целью укрепления рамных конструкций железнодорожного подвижного состава, повышения их долговечности и надежности, а также улучшения технико-экономической эффективности. В связи с этим, в частности, из-за нехватки подвижного состава и необходимости расширения строительно-монтажных работ на железных дорогах, особое внимание уделяется модернизации локомотивного парка, разработке методических подходов, направленных на повышение эффективности действующего специального самоходного подвижного состава, а также проведению новых исследований, нацеленных на улучшение технико-экономических показателей и продление срока службы.

В мире проводятся научные исследования, направленные на обеспечение эффективной и безопасной эксплуатации специального самоходного подвижного состава, а также продление срока его службы. Эти исследования включают глубокий анализ технического состояния грузоподъемных конструкций, изучение процессов нагружения на основе математического моделирования и определение напряженно-деформированного состояния. В этом направлении приоритетными считаются исследования по укреплению и совершенствованию рамных конструкций, оценке усталостных свойств и износостойкости материалов, разработке нормативно-технической документации с учетом условий эксплуатации. Вместе с тем, актуальными научно-практическими задачами являются определение остаточного ресурса специального самоходного подвижного состава с истекшим сроком службы, выявление конструктивных зон с наибольшим воздействием нагрузки, а также обоснование достоверности результатов, полученных на основе современных методов расчета и моделирования.

В нашей республике реализуется ряд мер по дальнейшему развитию различных отраслей транспорта, в частности, организации технического обслуживания и эффективного использования парка железнодорожных локомотивов, а также пополнению его локомотивами с улучшенными технико-экономическими характеристиками. В Стратегии¹ развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы и Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-329² определены такие важные задачи, как ...развитие

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года No УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

² Постановление Президента Республики Узбекистан от 10 октября 2023 года No ПП-329 «О мерах по кардинальному реформированию сферы железнодорожного транспорта Республики Узбекистан»

единой транспортной системы с неразрывной связью всех видов транспорта..., ...развитие рынка и инфраструктуры транспортно-логистических услуг..., ...расширение «зеленых коридоров» и транзитных возможностей в транспортной системе...,» а также ..."снижение затрат на перевозку пассажиров и грузов..., ...развитие железнодорожной инфраструктуры, обновление парка локомотивов и вагонов...." Для реализации этих задач, в частности, одним из важных направлений является исследование диэлектрической прочности, электрического сопротивления и температурных показателей изоляционных материалов тяговых электродвигателей локомотивов, работающих на постоянном токе, определение которых позволяет оценить техническое состояние этих двигателей и обосновывает повышение их надежности.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, установленных в Законах Республики Узбекистан № ЗРУ-706 от 9 августа 2021 года «О транспорте» и № 766-І от 15 апреля 1999 года «О железнодорожном транспорте,» Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года "О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» и № УП-5647 от 1 февраля 2019 года «О мерах по коренному совершенствованию системы государственного управления в сфере транспорта,» Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-4703 от 4 мая 2020 года "О мерах по коренному совершенствованию системы подготовки кадров в сфере транспорта" и № ПП-329 от 10 октября 2023 года «О мерах по коренному реформированию сферы железнодорожного транспорта Республики Узбекистан,» а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной деятельности.

